



**O‘ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI DAVLAT
TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHDA TASHQI SAVDO AYLANMASINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

Ibragimova Zilola Shuxratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti iqtisodchisi

zilola.ibragimova.1994@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining optimallashtirishga qaratilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Unda O‘zbekistonda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash strategiyasi, eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlashning ma‘muriy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari, eksportni divesifikatlash, avzallik va kamchiliklar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy va amaliy taklif hamda ekonometrik tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, bozor munosabatlari, erkin bozor, eksport, import, eksport diversifikatsiyasi, Jahon savdo tashkiloti, aksiz, bojxona yig‘imlari, iqtisodiy, ma‘muriy va texnik usullar, tarif, notarif, boj stavkalari.

Abstract

The research presents an overview of the optimization of state regulation mechanisms of foreign economic activity in Uzbekistan. It examines the state support strategy for exports in Uzbekistan, ways to improve the administrative-legal and economic mechanisms of supporting exporters, as well as export diversification, its advantages and disadvantages. The paper also provides scientific and practical proposals, along with econometric analyses, regarding the state regulation mechanisms of foreign economic activity in Uzbekistan.

Keywords: Foreign economic activity, market relations, free market, export, import, export diversification, World Trade Organization (WTO), excise taxes, customs



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

duties, economic, administrative, and technical methods, tariff, non-tariff, customs rates.

Dunyo mamlakatlarning jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallasuvi, hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish ob'ektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Erkin savdo siyosatining klassik namunalarini XIX asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-sakson mamlakatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va uning dominionlari (1947 yilgacha Britaniya tarkibiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlatlar) iqtisodiyotida kuzatish mumkin. Hozirgi paytga kelib fritredlik tizimining klassik ko'rinishi davlat ixtiyorida bo'lgan biror-bir mamlakat qolmadi. Davlatning nufuzli tashkilotlarini tartibga solish borasida rolini sezilarli oshganligini hisobga olsak, bu o'z-o'zidan tushunarli, albatta. Biroq erkin savdo siyosatining unsurlari ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy kursida hozir ham sezilarli, ayniqsa, rivojlangan va hududi hamda resurslari jihatidan kichik bo'lgan mamlakatlarda, masalan, Singapurda.

Iqtisodiy nazariyada odatda erkin savdo proteksionizm siyosatiga (ingl. protection — himoya, homiylik), ya'ni milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi bozor tamoyillarining salbiy ta'sirlaridan himoyalash maqsadida davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va ma'muriy chora-tadbirlar tizimi qarama-qarshi qo'yiladi. Proteksionizm o'z mohiyatiga ko'ra, ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjud. Bu siyosatning prinsiplari nazariy jihatdan amerikalik davlat arbobi A.Gamilton (XVIII asrning oxiri) va taniqli nemis iqtisodchisi F.List (XIX asrning o'rtalari) asarlarida ishlab chiqilgan. Biroq proteksionizm amaliy chora-tadbirlar seriyasi sifatida sayyoramizda so'1 (SSSR) va o'ng ("Uchinchi reyx" - fashistlar Germaniyasi) siyosiy oqimlarning totalitar rejimi davrida o'z kulminatsiyasiga yetgan. Bu mamlakatlarda savdo sohasiga davlat monopoliyasi xos edi. Yuqorida



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfséries.com

2nd November, 2025

qayd etib o‘tilgandek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida yanada ko‘p sonli mamlakatlarni aholi turmush farovonligini oshishini ta‘minlovchi erkin savdo siyosatiga o‘tishi tan olinib kelinayotgan bo‘lsa-da, proteksionizmning «tanlangan» restavratsiyasi deb atalgan jarayon ham kuzatilmoqda.

Dunyo xo‘jaligining XX-asr oxirlaridagi faoliyati o‘ziga xos xususiyatlaridan biri — davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashuvidir. Har bir davlat bu sharoitda o‘z tashqi iqtisodiy faoliyatini, o‘z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini har tomonlama o‘ylangan holda tashkil etishga qaratgan bo‘ladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifining tarkibiy belgisi aloqalarning iqtisodiy manfaatlari sohasida va davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi bilan bog‘langan guruhni belgilaydi. Tarkibiy belgiga ko‘ra, tashqi iqtisodiy aloqalar tashqi savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish, investitsiya aloqalariga bo‘linadi. Aloqa shakli — mazkur aloqa turining mavjud bo‘lish usuli, biror bir aniq aloqa mohiyatining tashqi namoyon bo‘lishidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar shakllariga savdo, barter, turizm, injiniring, franchayzing, lizing va hokazolar kiradi. Tashqi savdo faoliyati tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan, ularga doir mutlaq huquqlar (intellektual mulk bilan xalqaro ayirboshlash sohasida) tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir. Bunda tovar deganda har qanday harakatlanuvchi mol-mulk (shu jumladan, energiyaning barcha turlari) va ko‘chmas mulkka kiritilgan, tashqi savdo faoliyatining predmeti bo‘lgan havo, dengiz kemalari va ichki suzish kemalari hamda fazoviy obyektlar tushuniladi. Xalqaro tashishlar to‘g‘risidagi shartnoma chog‘ida foydalaniladigan transport vositalari tovar hisoblanmaydi.

Eksport - tovar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir. Eksport fakti tovar bojxona chegarasini kesib o‘tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar taqdim etilgan paytda qayd etiladi. Bojxona hududidan xorijga tovarlar olib chiqilmaydigan ayrim tijorat operatsiyalari tovarlar eksportiga tenglashtiriladi. Import - tovarlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan ularga doir favqulodda huquqlarni bojxona hududiga qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kelishdir. Import fakti tovar



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfséries.com

2nd November, 2025

bojxona chegarasini kesib o'tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar olingan paytda qayd etiladi. O'zbekiston bojxona hududining maqomi O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi bilan belgilangan.

Uning hududiga erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining chegaralari, erkin bojxona zonalari va erkin omborlar tegralari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi hisoblanadi. Tashqi savdoda xizmatlar savdosi katta o'rin tutadi. Xizmatlar ham tovardir, biroq ko'pincha ashyolashtirilgan shaklga ega emas va tovarlardan bir qator mezonlari bilan farq qiladi. Xizmatlar - boshqa shaxslar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati bo'lib, mehnat huquqiga oid munosabatlar asosida amalga oshiriladigan faoliyat bundan mustasno. Xizmatlar oldi-sotdisi bo'yicha asosiy tashqi savdo bitimlariga transport xizmatlari, injiniring (muhandislik-texnika xizmatlari savdosiga doir operatsiyalar), ijara munosabatlari (lizing), sayyohlik xizmatlari, eksport-importiga doir operatsiyalar, axborot va boshqarishni takomillashtirish sohasidagi maslahat xizmatlari, sug'urtalash va bir qator boshqa xizmatlar kiradi. Xizmatlarning tashqi savdosi "ko'zga ko'rinmaydigan eksport" deb ham ataladi. Eksport-import operatsiyalari bevosita yoki bilvosita bo'lishi, ya'ni tovar sohiblari va vositachilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Vositachilar sifatida broker, diler, komissioner, konsignator, ulgurji xaridor, sanoat agentlari faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Eksport-import operatsiyalaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat amaliyotida tovarlarni sotish uchun tashqi savdoning savdo, auksion (kim oshdi savdosi) va birja singari maxsus shakllaridan ham foydalaniladi. Har bir eksport yoki import tovari uchun pul summasini olish yoki to'lash bilan yakunlanadigan tovarlarni sotishga doir odatdagi eksport-import bitimlari bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatda tovar ayirboshlash operatsiyalari yoki muqobil kompensatsiya savdosi ham keng qo'llaniladi. Muqobil savdo tovarlarni sotishga doir operatsiyalarni o'z ichiga olib, bunda eksportchilarning import qiluvchilardan mahsulot bir qismini yoki eksport qilinayotgan tovarlar bir qismini xarid qilishga muqobil majburiyatlari ko'zda tutiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Xilma-xil bo‘lgan muqobil bitimlarini tashkiliy-huquqiy asos yoki kompensatsiya qoidasiga bog‘liq holda uch guruhga ajratish mumkin: valutasiz asosda tovar ayirboshlash bitimlari (barter), pul asosida savdo kompensatsiya bitimlari va sanoat kompensatsiya bitimlari. Barter bitimlari obyektlari odatda bir turdagi tovarlar, asosan xom-ashyoning kelishilgan to‘plamlari bo‘lib, bu tovarlarni manyovrlashni istisno etadi. Ayni shu sababli barter muqobil savdoda eng kam tarqalgan bitimdir. Muqobil kompensatsiya savdosining kattagina qismini pulga asoslangan, eksportchining import qiluvchi taklif etadigan tovarlarni sotishda ishtirokini ko‘zda tutadigan savdo kompensatsiya bitimlari egallaydi. Ushbu turdagi barcha bitimlarni guruhga bo‘lish mumkin: “offset” turdagi bitimlar, “svitch” turdagi bitimlar, bo‘nak xaridlari va hokazo. Savdoning ushbu turi sheriklarning ishlab chiqarish aloqalarini ko‘zda tutmaydi.

Agar muqobil savdo sanoat hamkorligining bir qismi bo‘lsa va bevosita ishlab chiqarish sohasi bilan bog‘lansa, u yetkazib berishlarning alohida sinf guruhini yaratadiki, bu guruh sanoat kompensatsiya bitimlari deb nom olgan. Masalan, bunyod etiladigan obyektlar uchun yetkazib beriladigan uskunalar haqi uning yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarning muqobil yetkazib berilishi bilan to‘lanadi. Xizmatlar tashqi savdosida ilmiy-texnika tadqiqotlari natijalari savdosi va mualliflik huquqlari savdosi alohida o‘rin tutadi. Ilmiy-texnika bilimlarini ayirboshlashga doir kelishuvlar nafaqat ilmiy, balki tijorat qiymatiga ham ega bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlarining savdosi bilan bog‘liq. Ilmiy-texnika bilimlari savdosiga doir operatsiyalarda patentlar, litsenziyalar, tovar belgilari, sanoat namunalari shaklidagi intellektual mehnat mahsulotlari, shuningdek, “nou-xau” tushunchasini birlashtirgan texnik bilimlar va tajribalar ishtirok etadi. Tashqi savdo aloqalari moliyaviy aloqalar bilan bog‘langan, zero moliya-savdo savdo hosilasi sifatida paydo bo‘ladi. Moliya pul oqimida, pullarning uzluksiz aylanmasida yuzaga keladigan munosabatlar tizimidir. Boshqacha qilib aytganda, moliya-pul fondlari shakllanishi va ulardan foydalanishda hamma pul mablag‘lari aylanmasi paytida yuzaga keladigan pul munosabatlari tizimidir.


Ekonometrik modellashtirish yordamida **savdo ochiqqligi(TO)ning** iqtisodiy ko‘rsatkichlarga qanchalik ta’sir qilishini aniqlash mumkin. Bu bog‘liqliklarni tahlil qilish iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi. Iqtisodiy siyosatni



ishlab chiqishda faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilinishi lozim. Ya'ni savdo ochiqligining salbiy ta'siri kuchli ekanligi aniqlansa, milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun proteksionistik choralar qo'llanishi mumkin. Ushbu modellar orqali savdo ochiqligining iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'lgan ta'siri baholanadi, bu esa savdo siyosatini rivojlantirish yoki qayta ko'rib chiqish (eksportni diversifikatsiya qilish, importga bog'liqlikni kamaytirish, yangi bozorlar ochish va mavjud bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish va h.k) lozim ekanligini bildiradi.

H0 gipoteza Keltirilgan to'rt indikator (savdo ochiqligi, YaIM, eksportlar, yalpi milliy xarajat) vaqt davomida o'zgarib borganligi tasvirlangan. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib tuzilishi mumkin bo'lgan H0 (nol gipoteza) quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Savdo ochiqligi (Trade openness) va YaIM (GDP) o'rtasida bog'liqlik yo'q. Ya'ni, savdo ochiqligi YaIM hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi.
2. Eksportlar va yalpi milliy xarajat (Gross national expenditure) o'rtasida bog'liqlik yo'q. Ya'ni, eksportlar hajmining o'sishi yoki kamayishi milliy xarajatlarni o'zgartirmaydi.
3. Indikatorlarning vaqt o'tishi bilan doimiy trend ko'rsatishi shart emas. Masalan, ko'rsatkichlar tasodifiy o'zgaruvchilar sifatida qabul qilinadi, ularda aniq trend mavjud emas va har qanday o'zgarishlar tasodifiy faktorlarga bog'liq. Ushbu H0 gipotezalar statistik testlarda isbotlanadi yoki rad etiladi. Agar ma'lum bog'liqlik aniqlansa (masalan, savdo ochiqligi va YaIM o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi), H0 rad etilib, alternativ gipoteza (H1) qabul qilinadi.




Tashqi savdo munosabatlarning skatter chizmasi



Mazkur grafikda to'rt xil iqtisodiy ko'rsatkichning yillar davomida o'zgarishi tasvirlangan. Savdo ochiqligi (YaIM foizda): bunda savdo ochiqligi (umumiy eksport va importning YaIMga nisbati) olingan. Shuningdek, 2000-yillarda savdo ochiqligi yuqori darajada o'sgan, ammo taxminan 2015-yildan keyin sezilarli ravishda pasayish kuzatilgan hamda 2020-yilda eng past darajaga tushgan, shundan so'ng yana tiklanish kuzatilgan. YaIM (GDP) (mlrd. AQSH)da yalpi ichki mahsulotning yillar davomida nominal qiymatdagi o'zgarishini ko'rsatadi. Shuningdek, 2000-yildan 2015-yilgacha YaIM uzluksiz o'sgan. 2015-yildan keyin pasayish kuzatilgan, ammo keyinchalik tiklanish kuzatilgan. Tovar va xizmatlar eksporti (Exports of goods and services)da eksport hajmi 2000-yildan 2025-yilgacha uzluksiz o'sganini ko'rsatgan, ammo ba'zi yillarda biroz tebranishlar kuzatilgan. Biroq, 2020-yildan keyin eksport hajmi sezilarli darajada o'sgan. Yalpi milliy xarajat (Gross national expenditure) esa yalpi milliy xarajat o'rtacha o'sish trendiga ega. Ammo, 2015-yilda pasayish kuzatilgan, bu davrda xarajatlarda 2020-yildan keyin yana tiklangan.


Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, savdo ochiqligi va YaIM o'rtasidagi pasayishlar hamda eksport va milliy xarajatlarda o'rtasidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Ehtimollar shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda barcha ko'rsatkichlarda global pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz natijasi bo'lgan muhim pasayish kuzatilgan. Keyingi yillarda barcha ko'rsatkichlarda tiklanish kuzatilmoqda.



Tashqi savdo munosabatlarning chiziqli grafigi



Savdo ochiqligi va yalpi milliy xarajat o'rtasida ba'zi qarama-qarshi harakatlar kuzatiladi, bunda savdo ochiqligi pasaygan yillarda (2010–2015) yalpi milliy xarajat o'sishda davom etgan. Eksport hajmi iqtisodiy barqarorlikni ko'rsatadi, chunki uning o'sishi doimiy va tebranishsiz davom etgan. Barqaror rivojlanish (SDG) indeksi sekin o'smoqda, bu esa barqaror rivojlanish (sustainable development goals) bilan bog'liq yutuqlar davom etayotganligini ko'rsatadi, ammo u tezkor emas. Bundan tashqari, 2010–2020-yillarda savdo ochiqligida keskin o'zgarishlar kuzatilgani bilan yalpi milliy xarajat va eksportning barqaror o'sishi iqtisodiyotning global sharoitlarga moslashuvchan ekanligini ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish (SDG) indeksining o'sishi iqtisodiy rivojlanish barqarorlik yo'nalishida ekanligini tasdiqlaydi.



Tashqi savdo munosabatlarning graf boks chizmasi

Mazkur boxplot grafik uchta iqtisodiy ko'rsatkichning taqsimotini ko'rsatadi. Savdo ochiqligi (**Trade openness percent of GDP**) (ko'k quti): Qutining ichida joylashgan chiziq savdo ochiqligining median qiymatini ko'rsatadi, u taxminan 60% atrofida. Quti 50% o'rtadagi ma'lumotlarni (25%-75% oralig'i) ko'rsatadi. Savdo ochiqligining asosiy qismi taxminan 40% va 80% oralig'ida. Pastki va yuqori "chiziqlar" savdo ochiqligining minimal va maksimal qiymatlarini ifodalaydi, ular 30% va 90% atrofida.

Tovar va xizmatlar eksporti (Exports of goods and services) (AQSh dollar) (qizil quti). Eksportning median qiymati nisbatan past bo'lib, taxminan 10-15 mlrd AQSh dollar atrofida. Eksport qiymatlari asosan 5 mlrd dan 20 mlrd AQSh



dollarigacha bo'lgan oraliqda joylashgan. **Chiziqlar** eksportning minimal va maksimal qiymatlarini ifodalaydi, ularning farqi katta emas, bu esa eksport qiymatlarining nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Yalpi milliy xarajatlar (**Gross national expenditure**) (**mlrd AQSh**) (yashil quti). Yalpi milliy xarajatlarning median qiymati yuqori bo'lib, taxminan 50-60 mlrd AQSh dollar atrofida. Xarajatlar asosiy qismi 30 mlrd dan 90 mlrd AQSh dollar oralig'ida. Chiziqlar bu ko'rsatkichning minimal va maksimal qiymatlarini aks ettiradi. Maksimal qiymatlar katta bo'lgani xarajatlarning keng o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki: Savdo ochiqligi nisbatan barqaror va yuqori bo'lib, iqtisodiyotning xalqaro savdo bilan kuchli integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Eksport juda past median va tor taqsimotga ega, bu iqtisodiyotning eksportga unchalik ko'p tayanmasligini bildirishi mumkin. Milliy xarajatlar katta o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, mamlakat ichki iqtisodiy faollikning eksportga qaraganda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu taqsimotlardan iqtisodiyotning ichki va tashqi omillarga qanchalik bog'liq ekanligini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish uchun foydalanish mumkin.

Pearson korrelatsiua test natijalari

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) GNE	1.000				
(2) TO	-0.501	1.000			
(3) EGS	0.845		1.000		
(4) GNE	1.000	-0.501	0.845	1.000	
(5) SDG_Index	0.829		0.866	0.829	1.000

Korrelatsion tahlil: Yalpi milliy xarajatlar (GNE) va savdo ochiqligi (TO):
Korrelatsiya koeffitsienti -0.501.

Bu salbiy bog'liqlikni anglatadi, ya'ni savdo ochiqligi (TO) oshgan sari milliy xarajatlar (GNE) pasayadi yoki aksincha. Bu ichki xarajatlar xalqaro savdoga kamroq moslashganligini ko'rsatishi mumkin.

Milliy xarajatlar (GNE) va tovar va xizmatlar eksporti (EGS):
Korrelatsiya koeffitsienti 0.845.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Bu kuchli ijobiy bog‘liqlikni bildiradi. Tovar va xizmatlar eksporti (EGS) oshgan sari milliy xarajatlar (GNE) ham oshadi. Bu eksportning ichki iqtisodiy faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Milliy xarajatlar (GNE) va barqaror rivojlanish (SDG) indeks:

Korrelatsiya koeffitsienti 0.829.

Bu SDG indeksining yalpi milliy xarajatlarga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, ichki xarajatlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Savdo ochiqligi (TO) va tovar va xizmatlar eksporti (EGS):

Korrelyatsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri jadvalda yo‘q, ammo grafik tahlildan kelib chiqib, ijobiy bog‘liqlik bo‘lishi mumkin. Bu savdo ochiqligining eksport hajmiga ijobiy ta’sir qilish imkoniyatini bildiradi.

Savdo ochiqligi (TO) va barqaror rivojlanish (SDG Index):

Korrelatsiya koeffitsienti to‘g‘ridan-to‘g‘ri jadvalda yo‘q, lekin umumiy mantiqqa asoslangan holda, savdo ochiqligi va barqaror rivojlanish o‘rtasida hamkorlik bo‘lishi mumkin.

Tovar va xizmatlar eksporti (EGS) va barqaror rivojlanish (SDG Index):

Korrelatsiya koeffitsienti yuqori (taxminan 0.866).

Eksportning ko‘payishi barqaror rivojlanish (SDG) maqsadlarini yaxshilashga yordam berishini ko‘rsatadi. Bu barqaror rivojlanish uchun tashqi savdo muhim ekanligini bildiradi. Savdo ochiqligi (TO) va yalpi milliy xarajatlar (GNE) salbiy bog‘langan, lekin eksport (EGS) va barqaror rivojlanish (SDG) indeksiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eksport (EGS) ichki iqtisodiyot va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim.

Barqaror rivojlanish indeksi (SDG Index) ko‘rsatkichlarning ko‘pchiligiga ijobiy ta’sir qiladi, bu barqaror rivojlanish indeksi (SDG) maqsadlarini qo‘llab-quvvatlashda ichki va tashqi omillarning muhimligini ko‘rsatadi.



Tashqi savdo ochiqligining SEM model regressiyasi

Number of obs = 23

Endogenous					variables
Observed:	SDG_Index	GDP	EGS		GNE
Exogenous					variables
Observed:					TO
Fitting		target			model:
Iteration	0:	log	likelihood	=	-435.54302
Iteration	1:	log	likelihood	=	-435.54302
Structural		equation			model
Estimation		method:			ml
Log		likelihood		=	-435.54302

	OIM				
	Coefficient	std. err.	z	p>z	[95% conf. interval]
Structural					
SDG_Index					
TO	-0.010	0.044	-0.230	0.820	-0.096 0.076
_cons	65.839	2.631	25.020	0.000	60.682 70.995
GDP					
TO	-1.020	0.316	-3.220	0.001	-1.640 -0.400
_cons	105.531	18.991	5.560	0.000	68.309 142.753
EGS					
TO	-0.011	0.069	-0.170	0.868	-0.147 0.124
_cons	11.477	4.155	2.760	0.006	3.333 19.620
GNE					
TO	-1.028	0.370	-2.780	0.005	-1.753 -0.302
_cons	108.988	22.214	4.910	0.000	65.450 152.526
var(e.SDG Index)	9.838	2.901	5.519	17.535	
var(e.GDP)		151.140	287.556	913.554	
	512.54				
	1				
var(e.EGS)		7.234	13.764	43.726	
	24.532				
var(e.GNE)		206.789	393.433	1249.920	
	701.25				
	6				

LR test of model vs. saturated: $\chi^2(6) = 234.94$ Prob > $\chi^2 = 0.0000$



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Ushbu SEM modeli savdo ochiqligi (TO) va uning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) indeksi, YaIM (Yalpi ichki mahsulot), tovar va xizmatlar eksporti (EGS) va Yalpi milliy xarajatlar (GNE) kabi iqtisodiy va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilayotganini baholash uchun qurilgan. Model 23 kuzatuv asosida tuzilgan va Log-likelihood qiymati modelning moslashuvchanlik darajasini bildiradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) indeksi va savdo ochiqligi (TO):

Savdo ochiqligi (TO) koeffitsienti: -0.010,

$P > z$: 0.820 (statistik jihatdan ahamiyatsiz, $P > 0.05$).

Savdo ochiqligi (TO) barqaror rivojlanish (SDG) indeksiga ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatadi. Bu natija savdo ochiqligi (TO) barqaror rivojlanish (SDG) maqsadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi degan xulosaga olib keladi.

Kons (constant): 65.839 (statistik ahamiyatga ega, $P = 0.000$).

Bu barqaror rivojlanish (SDG) indeksining o'rtacha qiymati savdo ochiqligi (TO) ning ta'siridan mustaqil holda taxminan 65.8 ekanligini bildiradi.

Yalpi ichki mahsulot (GDP) va savdo ochiqligi (TO):

Savdo ochiqligi (TO) koeffitsienti: -1.020,

$P > z$: 0.001 (statistik jihatdan ahamiyatli, $P < 0.05$).

Savdo ochiqligi YaIM (GDP) ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Har 1 birlik savdo ochiqligi (TO) oshganda, YaIM (GDP) taxminan 1.02 birlikka kamayadi.

Kons (constant): 105.531 (statistik ahamiyatga ega, $P = 0.000$).

YaIM (GDP)ning o'rtacha qiymati savdo ochiqligi (TO) ta'siridan mustaqil holda taxminan 105.5.

Tovar va xizmatlar eksporti (EGS) va savdo ochiqligi (TO): savdo ochiqligi (TO) koeffitsienti: -0.011,

$P > z$: 0.868 (statistik jihatdan ahamiyatsiz, $P > 0.05$).

Savdo ochiqligi tovar va xizmatlar eksportiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Kons (constant): 11.477 (statistik ahamiyatga ega, $P = 0.006$).

Eksportning o'rtacha qiymati savdo ochiqligi (TO) ta'siridan mustaqil holda taxminan 11.5.

Yalpi milliy xarajatlar (GNE) va savdo ochiqligi (TO):


savdo ochiqligi (TO) koeffitsienti: -1.028,

$P > z$: 0.005 (statistik jihatdan ahamiyatli, $P < 0.05$).

Savdo ochiqligi yalpi milliy xarajatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har 1 birlik savdo ochiqligi oshganda, yalpi milliy xarajatlar taxminan 1.028 birlikka kamayadi. Kons (constant): 108.988 (statistik ahamiyatga ega, $P = 0.000$). Yalpi milliy xarajatlarning o'rtacha qiymati savdo ochiqligi ta'siridan mustaqil holda taxminan 109.

Xulosa qilib, Savdo ochiqligi va YaIM, Yalpi milliy xarajatlar: Savdo ochiqligi ushbu ikki ko'rsatkichga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ichki iqtisodiy faoliyatning eksport (GNE) va iqtisodiy o'sishning YaIM (GDP) xalqaro savdo integratsiyasiga nisbatan moslashmaganligini ko'rsatishi mumkin.

Savdo ochiqligi (TO) va YaIM (SDG Index), tovar va xizmatlar eksporti (EGS): Bu ko'rsatkichlar bo'yicha savdo ochiqligining ahamiyatli ta'siri aniqlanmadi.



Tashqi savdo ochiqligining SEM model visual regressiyasi

$$SDG_Index = -0.010 \cdot TO + 65.839 + e_{SDG_Index}$$

Izoh: TO o'zgaruvchisi har bir birlikka oshganda, SDG Index 0.01 birlikka kamayadi. Intercept (65.839): TO = 0 bo'lganda, SDG Indexning boshlang'ich qiymati 65.839 ga teng bo'ladi. Bu natija SDG Indexning TO bilan salbiy bog'liqligini ko'rsatadi, ammo Toning SDG Indexga ta'siri juda kichik.

$$GDP = -1.020 \cdot TO + 105.531 + e_{GDP}$$

Izoh: TO o'zgaruvchisi har bir birlikka oshganda, GDP 1.02 birlikka kamayadi. Intercept (105.531): TO = 0 bo'lganda, GDPning boshlang'ich



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

qiymati 105.531 ga teng. Bu natija TOning GDPga nisbatan sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

$$EGS = -0.011 \cdot TO + 11.477 + eEGS$$

Izoh: TO o'zgaruvchisi har bir birlikka oshganda, EGS 0.011 birlikka kamayadi. Intercept (11.477): TO = 0 bo'lganda, EGSning boshlang'ich qiymati 11.477 ga teng. Bu natija EGSning TO bilan deyarli bog'liq emasligini ko'rsatadi, chunki ta'sir darajasi juda kichik.

$$GNE = -1.028 \cdot TO + 108.988 + eGNE$$

Izoh: TO o'zgaruvchisi har bir birlikka oshganda, GNE 1.028 birlikka kamayadi. Intercept (108.988): TO = 0 bo'lganda, GNEning boshlang'ich qiymati 108.988 ga teng. Bu natija TOning GNEga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Bunda:

- Savdo ochiqlik darajasi (TO-Trade openness)
- Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) indeksi
- YaIM (GDP)
- Tovar va xizmatlar eksporti (EGS)
- Yalpi milliy xarajatlar (GNE- Gross National Expenditure)

Xulosa qilib, Savdo ochiqligi (TO): GDP va GNE uchun sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natija iqtisodiy faoliyat savdo ochiqligi bilan bog'liq salbiy oqibatlarga sezgir bo'lishi mumkinligini bildiradi. Eksport (EGS): Savdo ochiqligi eksportga ta'sir qilmaydi. Bu xalqaro savdoning eksport darajasiga bevosita ta'siri yo'qligini ko'rsatadi. SDG_Index: TO SDG maqsadlariga sezilarli darajada ta'sir qilmaydi. Mazkur model xalqaro savdo va ichki iqtisodiy faoliyatning moslashuvchanligini kuchaytirish uchun milliy siyosatni takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O'zbekiston, 2021
2. O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida” gi Qonuni. 2012 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investisiyalari to'g'risida” gi Qonuni. 2017 yil 18 aprel.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econferences.com

2nd November, 2025

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonun. 2019 yil.

5. Киреев А. Международная экономика. В 2-х ч. М.: 2007 г • Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. СПб.: Питер. 2003г.

6. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008

7. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

8. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Hakimov N.Z., Bobojonov B.R. Jahon iqtisodiyoti. T.: MChJ "RAM-S", 2007 y

9. Nazarova G.G., Haydarov N.X., Akbarov M.T. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: MChJ "RAM-S", 2007 y

10. Спиридонов И.А. Мировая экономика: Учеб. Пособие. – М.: РИОР, 2007.